

## **PROCEDURE FOR SELECTION OF CANDIDATES FOR MARKETING COURSES AND TRAINING EXPERIENCE**

Maxamadiyev Z. Sh.,

Podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Quronanish va otish kafedrasi sikl boshlig'i

### **ABSTRACT**

This article reveals the procedure, main directions and standards for the selection of candidates for the school of snipers of the US Armed Forces, the requirements for them, the procedure for passing weekly tests.

**Keywords:** School of snipers, “Ghilliye suit” camouflage, instructors, camouflage, selection procedure, sniper positions.

### **ANNOTASIYA**

Ushbu maqolada AQSH qurolli kuchlarining menganlik maktablariga nomzodlarni saralab olish tartibi, ularga qo'yilgan talablar, haftalik bosqichlardagi sinovlar qabul qilinishi haqida aytib o'tilgan. AQSH menganlar maktabiga nomzodlarni dastlabki saralash mezonlari hamda nomzodlarni saralab olishning muhim yo'naliishlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Menganlar maktabi, kamuflyaj, “Ghilliye suit”, yo'riqchilar, tabiiy niqoblanish, saralash mezonlari, mengan pozitsiyasi.

### **АННОТАЦИЯ:**

В данной статье раскрыт порядок, основные направления и нормативы отбора кандидатов в школу снайперов ВС США, требования, предъявляемые к ним, порядок сдачи недельных зачетов.

**Ключевые слова:** Школа снайперов, камуфляж “Ghilliye suit”, инструктора, маскировка, порядок отбора, снайперские позиции.

AQSH qurolli kuchlari bo'linmalarida menganlarni tayyorlashda alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, AQShning Jorjiya shtatida joylashgan Fort-Benning menganlar tayyorlash maktabida nomzodlarni saralash va tayyorlash kursi faoliyat yuritmoqda. Fort-Benning menganlar tayyorlash maktabida 11 nafardan iborat yo'riqchi - serjantlar nomzodlarni saralashda izolyatsiya va turli bosim ostida, yakka va guruh tarkibida mashaqqatli vazifalar berish orqali ularni sinovdan o'tkazadi.

Kursning dastlabki birinchi haftasi uch bosqichda amalga oshiriladi:

-Jismoniy tayyoragarlik

-“Ghilliye suit” loxmat kamuflyajini tayyorlash

-10 km masofada turli yo'llardan piyoda yurish.

**Birinchi bosqichida** nomzodlar jismoniy tayyoragarlikdan sinovlar topshirishadi.

Mashqlar quyidagicha amalga oshiriladi: 10 marotaba oddiy yerga tayangan holda kuch mashqlari; 10 marotaba yerda yotgan holatda (press) mashqlari; 10 marotaba qo'llarni kengroq

yozgan holatda yerga tayangan holda kuch mashqlarini bajarish; 10 marotaba yerda yotgan holatda (press) mashqlari takroriy; 10 marotaba qo'llarni kaftlarning ustiga qo'ygan holatda yerga tayangan holda kuch mashqlarini bajarish; 10 marotaba o'ng va chap yonlarga egilgan holatdagi yerda yotgan holatda (press) mashqlari mashqlarini bajarishlarni amalga oshirishadi.



nomzodlarning o'tlar, suv va loydan kechib o'tish

**Ikkinchi bosqichda** jismoniy mashg'ulotlardan so'ng, yo'riqchilar nomzodlarga merganlar niqoblanishi uchun kamuflyaj tayyorlashni o'rgatishadi. Nomzodlar “**ghilliye suit**” loxmat turidagi merganlar kostyumini askar tanasining konturini buzish uchun barglardan foydalanadigan kamuflyaj kostyumini tayyorlashni o'rgatishadi. Bunda obyekt va tana qismlarining konturlari, mergan qurollari, boshi va tanasi yashirin bo'lishi kerak. Bunday konturlar juda uzoq masofadan ko'rindi va niqoblanishni buzish bo'yicha ikkinchi muhim

omil hisoblanadi. Shuning uchun ularga hududning umumiy fonidan vizual ravishda ajratib bo'lmaydigan xususiyatlarini bilishi kerak.

**Uchinchi bosqichda** nomzodlar o'z anjom-aslahalari va kamuflyajlari bilan 10 km masofada turli xil balandliklardagi o'tlar va suv, loy, toshlar va o'simliklar bilan to'ldirilgan ariqlardandan kechib o'tish o'rgatiladi.

Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad yo'riqchilar merganlarning tabiiy niqoblanish qobiliyatlarini, o'z anjom-aslahalari bilan yashirinchcha piyoda va suvli havzalardan harakatlanish qoidalarini o'rgatishadi va nomzodlarni saralashadi. Yo'riqchilar uzoq piyoda

yurishlardan so'ng, mashq qilishning bir qismida nomzodlardan bir-birini ko'tarish va sudrab borishni talab qiladi - agar dalada yaralangan bo'lsa, mergan juftliklariga yordam berish qobiliyatini sinab ko'rishadi. Ushbu treningning maqsadi nomzodlarga mergan bo'lish qanchalik mashaqqatli vazifa bo'lishi mumkinligini o'rgatish hamda ular bu sharoitlarga tez-tez duch kelishini o'rgatishdan iborat.

Merganlarni eng yaxshi mutaxassis sifatida tayyorlashga qo'yilgan talablar zamonaviy jangovar harakatlarga talab bera oladigan darajada tayyorlanishi kerak.

AQSH merganlar maktabiga nomzodlarni dastlabki saralash mezonlarini keltirib o'tishimiz mumkin:

- harbiy unvoni 1-darajali oddiy askardan 1-darajali serjantgacha;
- milliy gvardiya va zahirada haqiqiy harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchi;
- yaxshi ish jildi mavjud;
- spirtli ichimliklarga va narkotik moddalarga befarq;
- mergan bo'lishga ixtiyoriy roziligi (komandir tavsiyasi bilan);
- ko'rish qobiliyati 20/20;
- sudlanganligi va intizomiy ta'zirlari mavjud emas;
- nomzod M16A1 yoki M16A2 o'qchi ekspert bo'lishi;

- nomzod bir yildan kam bo'lмаган муддатда тайындарлардан о'tган;
- харби мутаксислик үсібі bo'yicha;
- жиынтық тайындарларини a'ло дарајада топшырган.

Merganlarni tanlashda sinchkovlik bilan saralab olishni talab etadi. Mergan mutaxassisligiga харби xizmatchilarni tanlab olishda komandirlar ularnining shaxsiy jildlarini diqqat bilan o'rganib chiqishlari lozim bo'ladi. Harbiy xizmatchilarning shaxsiy jildlarini o'rganishda ularning mergan mutaxassisligida xizmat qilishga potensial yaroqliligi o'rganiladi. Mergan bo'lish istagini bildirgan harbiy xizmatchilar yuqori shaxsiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Merganlarni harbiy xizmatchilar orasidan tanlab olish uchun bir qator tadbirlar amalga oshiriladi: uning temperamenti o'rganiladi, ko'rish, eshitish va boshqa sezgi oraganlarining qobiliyati tekshirib ko'rildi, uning harbiy xizmatgacha bo'lgan mashg'uloti va u o'sib ulg'aygan muhit o'rganiladi.

Shundan so'ng otish amallari bajarilib bir qator ko'rsatkichlar tekshirib ko'rildi:

**Aniq nishonga o'rish.** Tayyorgarlikdan o'tgan mergan aniq nishonga uradigan ekspert bo'lishi lozim. Mergan har yili kvalifikatsiya mashqlarini bajarish orqali ko'nikmalarini saqlab turishi, musobaqalarda sovrinli o'rinnarni egallashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari merganda ovchilik qobiliyati ham yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

**Jismoniy holati.** Tez tez uzoq муддатли оператсиyalarda ishtirok etayotgan qisqa uyqu bilan, suv va ovqat zahirasi cheklangan vaqtida ham jismoniy qobiliyatini yuqori дарајада ushlab turishi kerak. Sog'liqning yaxshiligi judayam yaxshi refleks, o'zining tanasini yaxshi boshqarish va yashash kuchining katta miqdordagi zahirasi deganidir. Xushkayfiyatilik, kuch bilan ayniqsa sport turlarida orttirilgan a'ло дарајадаги mustahkam sabr toqat merganni aniqlovchi yaxshi sifatlar hisoblanadi.

**Ko'rish qobiliyati.** Ko'rish merganning asosiy ishchi organi hisoblanadi. Shuning uchun merganning ko'rish qobiliyati 20/20 bo'lishi zarur. Shuningdek ochki taqib yurish muammo keltirib chiqaradi. Daltonizm ham mergan uchun kulgili holat hisoblanadi chunki tabiiy joy bilan birikib ketgan nishonni topishga qiynaladi.

**Chekish.** Mergan chekmaydigan shaxs bo'lishi lozim. Chekish va tutundan yo'talish mergan pozitsiyasini bildirib qo'yishi mumkin. Hattoki u jangovar vazifani bajarish vaqtida chekmasa ham, saqlanish o'zini chekishdan tiyish vaqtida uning ishlash samaradorligini pasaytiradi.

**Psixologik holati.** Komandirlar merganlarni tanlab olishda, mergan bo'lish istagini bildirgan harbiy xizmatchilarning merganga xos sifatlariga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Komandir nomzodni kerakli vaqtida o'q otishga tayyor ekanligini aniqlaydi. Shunga o'xshash xususiyatlar quyidagilar: puxtalik, tashabbuskorlik, vafodorlik, ichki xotirjamlik, intizomlilik, emotSIONAL barqarorlik.

- **Aqliy qibiliyatlar.** Merganning majburiyati keng miqyosda bilimlarni egallashni talab qiladi. U quyidagi doirada bilim ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.
  - ballistika;
  - o'q otar qurollari, o'q-dorilarning turi va ularning imkoniyatlari;
  - optik mo'ljalga olish moslamalarning tuzilishi, ishlash prinsipi;
  - radioaloqada ishlash va ishlash tartibi;
  - topografiya va joyda oriyentirlanish;
  - razvedka ma'lumotlarini yig'ish va yuborish;

- dushman harbiy liboslarini o'xshatish.

**Dala ko'nikmaları.** Mergan dala sharoitida o'zini qulay his qilishi va yaxshi bilishi shart. Amaliy ishdagi keng tajriba va tabiat hodisalarini bilishlik merganga ko'p vazifalarda yordamini ko'rsatadi. Bunday tajribaga ega harbiy xizmatchilar merganlarga o'xshab katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

**Dala ko'nikmasi.** Dala (polygon) sharoitlarda mergan o'zini mutaxassisligini yaxshi bilishi va qulay his eta olishi kerak. Mergan ko'plab vazifalarni yuksak darajada bajara olishi, amaliy ishlar tajribasi va tabiatni yaxshi bilishga mujassam etadi. Merganlar uchun nomzodlarni saralab olish jarayoniga bevosita merganlar vvvodi komandirini jalb etish muhim ahamiyatga egadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Макнаб, К. Психологическая подготовка подразделений специального назначения / К. Макнаб. - М., 2002. – 326 с.
2. Потапов, А.А., Искусство снайпера / А.А. Потапов. - М., 2003. - 347 с.
3. P.I. Ivanov, Umumiy psixologiya / P.I.Ivanov, M.YE. Zufarov – T: O'R oliv va o'rta maxsus ta'lim vazirligi // O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti – 2018. – B. 5.
4. Тапас, А.Е., Малая война / А.Е.Тапас. – М., – 2003. - 463 с.
5. R.S. Samarov, Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati / R.S. Samarov [va boshq.] – T.: “InnovatsiyaZiyo”, 2020.
6. <https://military.pravda.ru/1687328-armiya/> internet ma'lumotlari.